

**TUMANNING IJTIMOIY-IQTISODIY
KO‘RSATKICHLARI HISOBOTI**
2024 yilning 4-chorak

Joylashuvi va demografiyasi

Tashkil topgan vaqtি **07.12.1970** yil, umumiy maydoni **0,55** ming.kv.km, MFY soni **38 ta**, aholi punktlari **152 ta**. Aholi soni **192,9** ming (*97,4 ming erkak, 95,5 ming ayol*) (*yil boshidan 2,2 ming kishiga yoki 1,2 foizga ko‘paydi*),

- 3-7 yoshgacha **18,3** ming nafar,
- 7-17 yoshgacha **32,3** ming nafar.
- 16-30 yoshgacha **41,7** ming nafar.
- Pensiya oluvchilar **19,7** ming nafar
- Nafaqa oluvchilar **9,4** ming nafar

Chegaradosh tumanlar-Bulung‘ur, Toyloq, Samarqand, Oqdaryo, Payariq tumanlari.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar

Sanoat

-Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish **3 977,3** mlrd.so‘m mahsulot ishlab chiqarilishga erishildi (107,5%) (*viloyatdagi ulushi 8,6%*).

- Aholi jon boshiga **20 737** ming so‘m tashkil qilgan.
- 2025 yil rejası **4491,1** mlrd so‘m (*o‘sish 105,7 %*).

Chakana savdo aylanmasi

-Chakana savdo hajmi **1247,3** mlrd.so‘mga yetkazildi (108,3%) (*viloyatdagi ulushi 3,5%*).

- Aholi jon boshiga **6503,4** ming so‘m tashkil qilgan.

Qurilish pudrat ishlari

-Qurilish pudrat ishlari hajmi **365,4** mlrd.so‘m (107,5%) (*viloyatdagi ulushi 2,6%*).

- Aholi jon boshiga **1904,9** ming so‘m tashkil qilgan.
- 2025 yil rejası **426,1** mlrd so‘m (*o‘sish 107,4 %*).

Qishloq xo‘jaligi

-Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **3381,0** mlrd.so‘mga yetkazildi (102,3%) (*viloyatdagi ulushi 5,9%*).

- Aholi jon boshiga **17625,0** ming so‘m tashkil qilgan.
- 2025 yil rejası **4216,0** mlrd so‘m (*o‘sish 104,9 %*).

Jami xizmatlar

-Jami xizmatlar hajmi **1515,5** mldr.so‘m (114,8%) (*viloyatlagi ulushi 2,6%*).

-Aholi jon boshiga **7901,4** ming so‘mni tashkil qilgan.

- 2025 yil rejasi **2130,6** mldr so‘m (*o‘sish 108,7 %*).

2024 yilda qiymati **1 713,6** mldr so‘mlik **51** ta investitsiya loyihalari ishga tushirilishi natijasida **911** ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Jumladan:

-sanoatda **1 538,6** mldr. so‘mlik **22** ta loyihalarda **574** ta yangi ish o‘rinlari

-qishloq xo‘jaligida **13,2** mldr. so‘mlik **4** ta loyihalarda **22** ta yangi ish o‘rinlari

-xizmat ko‘rsatishda **161,8** mldr.so‘mlik **25** ta loyihalar **315** ta yangi ish o‘rinlari

Misol uchun:

*"ONE-NON" MChJning **170,7** mldr.so‘mlik "Un ishlab chiqarishni kengaytirish" loyihasi ishga tushirildi.*

Xorijiy investitsiyalarini jalgan qilish:

2024 yilda **88,3** mln. AQSh dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalgan etilishi hisobiga,

Xususan:

5 ta loyiha bo‘yicha **76,3** mln. AQSh dollar investitsiyalar o‘zlashtirildi. O‘tgan yilga nisbatan qariyb **5** barobarga o‘sdi.

Eksport

2024 yilda jami **88,3** mln. dollarga belgilangan rejaga nisbatan **109 foizga** bajarildi. (2023 yilga nisbatan **163** foizga yoki **7,1** mln. \$ga ko‘p). Shundan:

-sanoat **69,2** mln. dollar;

-qishloq xo‘jaligi **19,1** mln. dollar.

Tadbirkorlik sub’ektlari

Jami tadbirkorlik sub’ektlari soni **2 604** ta bo‘lib, shundan:

-**1 270** ta kichik biznes sub’ektlari

-**1 334** ta YaTTlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Kichik biznes sub’ektlari sonini ikki barobarga oshirish bo‘yicha **240** ta tashkil etilib, shundan

-**120** tasi MChJ,

-**10** tasi oilaviy korxona,

-**20** tasi xususiy korxonalar.

Shu bilan birga **474 ta** yangi YaTTlar tashkil etildi.

Yil yakuni bilan jami 240 ta KBS va **474 ta** YaTTlar tashkil etilib, **928 dan** ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Bank kreditlari

O‘tgan davri mobaynida tijorat banklari tomonidan **Ijtimoiy dasturlar** doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning **474 ta** loyihalar o‘rganib chiqilib, ushbu loyihalar uchun **10.1 mlrd.so‘mlik** imtiyozli kreditlar ajratildi, jumladan:

Byudjet tushumlari

Byudjet tushumlari rejasi **109 mlrd.so‘mga** belgilangan bo‘lib, o‘tgan 12 oy davomida **118,8 mlrd.so‘mga** bajarildi yoki **109 foizga** bajarilishi orqali qo‘srimcha **9,8 mlrd.so‘m** tushum tushishi ta’minlandi.

- infra tuzilmani rivojlantirish;
- “Fuqarolar tashabbus” jamg‘armasiga;
- boshqa tadbirlarni amalga oshirishga imkoniyat yaratildi.

Bandlik

Aholi bandligini ta’minlash dasturi bo‘yicha jami **24 734 ta** doimiy va mavsumiy ish o‘rinlari tashkil etish rejalashtirilib, 12 oy davomida **25 334 ming nafar (101,0 foizga)** fuqarolar doimiy va mavsumiy ish o‘rinlariga joylashtirildi.

-tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashishi bo‘limiga **3408 nafar** fuqarolar murojaat qilib, shundan 1913 rejalashtirilgan bo‘lib amalda **2035 taga** bajarildi (**106.4%**), shundan kvota ish o‘rinlariga reja **364 taga** belgilangan bo‘lib amalda **364 ta (100,0%)** bajarildi.

406 nafari o‘z xohish istaklariga ko‘ra xaq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilinib, jami **424,6 mln so‘m** ish haqlari to‘lab berildi.

585 nafar fuqarolarga tuman hududida va viloyat markazlarida joylashgan kasb hunarga o‘qitish markazlariga kasb-xunarga o‘qitishga yo‘llanmalar berilgan.

Tumanda jami 12 ta bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 12 ta yarmarkalar o‘tkazildi 296 ta korxonalar ishtrok etdi, shundan 746 nafar fuqarolar jalb qilinib shundan 261 nafari doimi ish o‘rinlariga joylashtirildi, 158 nafari kasb xunarga o‘qitish kurslariga yo‘llanma berildi, 112 nafariga xuquqiy maslaxatlar berildi

Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” PF-**330**-son Farmoni ijrosini samarali ta’minlash maqsadida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida **76** nafar tashkilot raxbarlari va o‘rnbosarlariga tumandagi **380** ta kambag‘al oilalar biriktirildi va xozirgi kunda xar bir oilalar bilan shug‘ulanib kelmoqda.

Joriy yil 1 yanvar holatiga kambag‘al oilalar **4983** ta bo‘lib, qamrovi **11,8** foiz shundan kambag‘allik restriga **1758** ta kambag‘al oilalarda **8053** nafar oila azolari kiritilib kambag‘allikdan chiqarish maqsadli ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi

- tadbirkorlarga doimiy ish o‘rinlariga joylashtirish 756 nafar
- tadbirkorlikka jalg etish orqali 601 nafar
- "drayver" loyihalarni amalga oshirish orqali 51 nafar
- qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berish orqali 135 nafar
- kasb-hunarga o‘rgatish orqali bandligini ta’minlash (aholi) 165 nafar
- boshqa yo‘nalishlar hisobiga 1001 nafar.

Ushbu yo‘nalishda **tizimli ishlar** amalga oshirilib, **2025** yil yakuniga Tumanda kambag‘alikdan xoli xudutga aylantiriladi.

Erkin iqtisodiy zonada amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari

Joylashtirilgan loyihalar soni - **13** ta

Qiymati **120,0 mln. doll.**

Ish o‘rinlar **1060 nafar**,

Ishlab chiqarish quvvati **876,0 mlrd so‘m**,

Eksport hajmi **11,5 mln dollar**,

Joriy yilda «**CCI SAMARKAND LIMITED**» MChJ QK tomonidan qiymati **78,3 mln dollar** bo‘lgan “Sosa Sola ichimligi hamda boshqa salqin ichimliklar ishlab chiqarish” loyihasi ishga tushirilib **200** ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

2025-2026 yillarda **12 ta** korxonalarda qiymati **42,2 mln dollar**lik loyihalar amalga oshiriladi. Misol uchun,

(“**SORX FARM**” MChJning “Tomat pastasi ishlab chiqarish” loyihasi, qiymati **11,5 mln dollar** va “**SMART UNION**” OKning

"Tomchilab sug‘orish tizimi va yordamchi mahsulotlar ishlab chiqarish loyihasi" qiymati **5,1 mln dollar**)

Sanoat sohasining o‘sish nuqtalari (drayverlar)

Ushbu jarayon "mahallabay" ishlash tizimi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining daromadi va xarid qobiliyatini oshirish, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalar bilan manzilli ishlash va ularning "o‘sish nuqtalari"ni hayotga tatbiq etishda yaxshi samara bermoqda.

Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda asosiy "o‘sish nuqtalari" - drayveri sifatida, ya’ni:

- 1. Sanoat sohasini rivojlantirish.**
- 2. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasini rivojlantirish.**
- 3. Qishlok xo‘jaligi sohasini rivojlantrish.**

a) **Sanoat sohasini rivojlantirish "o‘sish nuqtasini"** inobatga olgan holda 2024 yil yakuni bilan qiymati **35,5 mlrd so‘mlik 5 ta** yangi loyihalarda **865 ta** yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Misol uchun:

"SAMARKAND GOLDEN COLORS" MChJning 5,2 mlrd. so‘mlik gilam mahsulotlari uchun akril polimer ranglar ishlab chiqarishni tashkil etish" loyihasi,

"KOMPRESSORNIY ZAVOD AIRPROMMASH" MChJning 4,0 mlrd.so‘mlik Kompressorlar uchun havo quritgichi ishlab chiqarishni tashkil etish.

b) **Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda "o‘sish nuqtasini"** inobatga olgan holda chakana savdo va turizm sohasini rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi PQ-104-son qaroriga asosan tuman markazida maxsus xizmat ko‘rsatish ko‘chalarini tashkil etilish borasida "**Samarqand**" **ko‘chasi** belgilab olinib, qiymati **3,1 mlrd.so‘mlik 10 ta** loyihalar ishga tushirilib, **22 ta** yangi ish o‘rinlari yaratildi.